

**Nafiddinova Xosiyat Ravshanovna**  
Buxoro davlat universiteti dotsenti,  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
[xosiyat1989@mail.ru](mailto:xosiyat1989@mail.ru)

## EVAKUATSIYA JARAYONLARINING MILLATLARARO MUNOSABATLAR SHAKLLANISHIGA TA'SIRI VA IJTIMOIIY AHAMIYATI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada 1941-1945 yillarda bo'lgan urush oqibatida O'zbekistonda evakuatsiya qilingan bolalar, ularning bu yerda joylanishi va keyingi taqdiri masalalari muhokama qilingan. Qolaversa, zamonaviy dunyoda urush bo'layotgan hududlarga nisbatan O'zbekistonning yuritayotgan gumanitar va bag'rikenglik siyosati mohiyati ochib berishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** evakuatsiya, bolalar uyi, rehabilitatsiya, millatlararo munosabatlarning kengayishi, bag'rikenglik, arxiv hujjatlari, moslashuv.

## ВЛИЯНИЕ ЭВАКУАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ НА ФОРМИРОВАНИЕ МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ И ИХ СОЦИАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы эвакуированных в Узбекистан детей в период войны 1941–1945 годов, их размещения и дальнейшей судьбы. Кроме того, предпринята попытка раскрыть сущность гуманитарной и толерантной политики Узбекистана в отношении современных зон военных конфликтов.

**Ключевые слова:** эвакуация, детский дом, реабилитация, расширение межэтнических отношений, толерантность, архивные документы, адаптация.

## THE IMPACT OF EVACUATION PROCESSES ON THE FORMATION OF INTERETHNIC RELATIONS AND THEIR SOCIAL SIGNIFICANCE

**Abstract.** This article discusses issues related to children evacuated to Uzbekistan during the 1941–1945 war, their placement, and their subsequent fate. In addition, it attempts to reveal the essence of Uzbekistan's humanitarian and tolerance-oriented policy toward regions affected by modern armed conflicts.

**Keywords:** evacuation, orphanage, rehabilitation, expansion of interethnic relations, tolerance, archival documents, adaptation.

**Kirish.** Urush yillarida xalqimizning ezgu ishlari, bag'rikengligi, o'zaro bir-biriga beg'araz yordam ko'rsatishi, boshqa yurtdagi qardoshlariga mehr-muhabbati tarix zarvaqlarida oltin harflar bilan bitilgan haqiqatdir. 1941-1945-yillardagi Ikkinchi jahon urushida ko'p millatli O'zbekiston xalqi jang maydonlarida va front ortida ulkan jasorat va matonat ko'rsatib, fashizm ustidan qozonilgan g'alabani ta'minlashga munosib hissa qo'shdi. Urushda qatnashgan 1,5 milliondan ortiq o'zbekistonliklarning yarim milliondan ortig'i halok bo'ldi, 133 mingga yaqini bedarak yo'qoldi, 60 mingdan ziyodi nogiron bo'lib qaytdi.

**Asosiy qism.** O'zbekiston Respublikasi urush yillarida Rossiya, Ukraina, Belorussiya kabi bosib olingan o'lkalardan hammasi bo'lib bir milliondan ortiq kishini qabul qilib, ulardan 200 ming nafari bolalar edi. Ko'chirib keltirilgan bolalarni qabul qilishni tartibli tashkil etish maqsadida respublika hukumatining qarori bilan 1941-yil oktabrda evakuatsiya qilingan bolalarni qabul qilish uchun viloyat markaziy punkti tashkil qilindi. 1942-yilning boshlarida Buxoro viloyati aholisining barcha qatlamlari 1171 nafar bolani asrab olganlar. Ularni munosib turmush kechirishi uchun qo'llaridan kelgan barcha sharoitlarni yaratishgan. Viloyatda mavjud 9 ta bolalar uyi kengayib, ular soni 21 taga yetgan. Ularda tarbiyalanuvchi bolalar soni esa 3

40 baravarga ortgan. Hattoki viloyatdagi korxonalar rahbarlari o'z mablag'lari hisobiga bolalar uyi tashkil etish istagini bildirgan. 1942-yil fevralida 211 nafar bola uchun shunday muassasalardan yettitasi tashkil etilgan[1,34]. 1942-yil mart oyida esa 300 nafar bolaga mo'ljallangan bolalar uyi o'z faoliyatini boshlagan, 273 nafar o'smir esa ishga joylashgan. Shuningdek, shahar aholisidan 351 nafar ariza ko'chirib kelgan bolalarni o'z uyiga qabul qilishni so'rab murojaat qilingan. Ammo ulardan bor yo'g'i 80 tasi qanoatlantirilgan. Viloyatga ko'chirib keltirilgan bolalarni joylashtirish va ularga yordam ko'rsatish komissiyasiga V.Narishkin rahbarlik qilgan[2]. Viloyat aholisi asosan rus, ukrain va belorus bolalarini o'z bag'riga olgan. 1941-yilning oxirigacha 2707 buxorolik ayol yetim bolalarni o'z tarbiyasiga olgan. Viloyat hududi bo'yicha 180 nafar bola Karmanaga, 100 nafari Vobkentga, 155 nafari G'ijduvonga, 125 nafari Buxoroga va 100 nafari Kogonga evakuatsiya qilingan. 1942-yilda O'zbekiston Respublikasiga urush bo'layotgan joylardan, ya'ni Moskva, Moskva viloyati, Odessa, quyi Qrim, Ivanovo shahri, Kiyev, Voronej, Voroshilovgrad, Sum, Rostov, Chernigov, Xarkov, Orlov, Kursk viloyatlaridan 68 ta bolalar internatlari evakuatsiya qilingan bo'lib, ulardan 8585 evakuatsiya qilingan bolalar bo'lgan. Evakuatsiya qilingan bolalar soni 20 mingdan ko'p bo'lgan.

1942-1946 yillarda Buxoro viloyati maorif bo'limining mudiri bo'lib ishlagan M.N.Raxmatovning butun diqqati va amaliy ishi urush bo'lib turgan shaharlardan Buxoroga ko'chirilgan polyak, rus, chex, slovak yetim bolalarini va ularning o'qituvchilari, tarbiyachilarini viloyat, shahar va tumanlar bo'yicha joylashtirish, ota-onasiz qolganlarni esa shaxsiy oilalarga joylashtirish va bolalar uylarini tashkil etish, ularni oziq-ovqat, kiyim-kechak va binolar bilan ta'minlashdan iborat bo'lgan muhim tadbirlarga qaratilgan edi. Umrini ilm-fan, maorif va bag'rikenglikka baxshida etgan bunday fidoyi insonlarning mehnati tarixiy xotiraga aylandi. O'zbekistonda asta-sekin bolalar uylari, maktab-internatlari, bolalar bog'chalari va yasllari tarmog'i kengaytirildi, ular birinchi navbatda ko'chirilib keltirilgan bolalarni va frontga ketganlarning bolalarini qabul qildilar. Xususan 1944-yil hisobotlariga ko'ra O'zSSR Sog'liqni Saqlash Xalq Komissarligiga qarashli respublikada 215 ta bolalar uyi mavjud bo'lgan bo'lib, ulardan 15 tasi polyak bolalariga berilgan. Umumiy bolalar soni 23629 bo'lib, ulardan 1323 nafari polyak millatiga mansub bo'lgan. Ular shahar va viloyat bolalar uylariga joylashtirilgan. 1945-yilda O'zbekiston viloyatlarida va Qoraqalpog'istonda 268 ta bolalar uyi mavjud bo'lib, ulardagi tarbiyalanuvchilar soni 31300 nafar bolani tashkil etdi. Holbuki, urush arafasida respublikada faqat 106 ta bolalar uyi mavjud bo'lib, ularda 12 ming bola tarbiyalanardi.

II jahon urushi xalqlar boshiga turli og'ir vaziyatlar va qiyinchilarni olib keldi. Jumladan urush davrida eng og'iri oziq-ovqatni yetishmasligi sabab insonlar, ayniqsa bolalarning to'yib ovqatlanmasligi edi. Urush davrida Sog'liqni Saqlash Xalq Komissarligi bolalar ovqatlanishiga alohida e'tibor bergan. Ammo, oziq-ovqat mahsulotlarining yetishmasligi tufayli oziq-ovqatni taqsimlashda har doim ham ovqatlanish me'yorlariga to'la rioya qilinmagan. Arxiv hujjatlarining guvohlik berishicha urush davrida yog' mahsulotlari, go'sht, donli mahsulotlar bilan ta'minlash, ba'zi joylarda sutli mahsulotlar va hatto sabzavotlar yetishmagan. Ushbu qiyinchiliklarga qaramay, evakuatsiya qilingan bolalarga yordam berish bo'yicha Markaziy bolalar komissiyasining tashabbusi bilan katta shaharlarda evakuatsiya qilingan aholining zaiflashgan bolalari va armiya safida xizmat qilayotgan jangchilarning bolalari uchun umumiy ovqatlanish shahobchalari tashkil etishga muvaffaq bo'lingan. Arxivda saqlanayotgan yana bir hujjatga ko'ra 1942-yilda respublikada 20000 ming bolani ovqatlanishini ta'minlash uchun ochiq oshxonalar ochilgan[3].

Evakuatsiya jarayoni millatlararo munosabatlarning kengayishiga, ijtimoiy hayotning kosmopolitlashuviga sabab bo'ldi. Ko'plab rus, ukrain, yahudiy oilalari urushdan keyin ham O'zbekistonda qolib, respublika hayotiga faol integratsiyalashdi. Evakuatsiya jarayoni esa nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-madaniy integratsiyani kuchaytirdi. Minglab ziyolilar, san'atkorlar va bolalar O'zbekistonga ko'chirilib, mahalliy aholining mehmondo'stligi tufayli yangi ijtimoiy aloqalar va madaniy muhit shakllandi. Bu esa keyinchalik mamlakatning madaniy rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Bu kabi siyosat ayni damda mustaqillik yillarida ham davom etib kelmoqda. Urush bo'layotgan hududlardan yarador bo'lgan ayollar va bolalarni mamlakatimizga olib kelish xalqimiz va davlatimizning boshqa yurtdagi qardoshlar va millatlar tarixiga befarq emasligining yorqin namunasi hisoblanadi. So'nggi paytlarda Falastindagi vaziyat jahon hamjamiyatining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. BMTning Jahon oziq-ovqat dasturi ma'lumotlariga ko'ra, G'azo aholisining to'rt dan bir qismi ochlikka yaqin sharoitda yashayapti. 100 mingga yaqin ayollar va bolalar to'yib ovqatlanmaslikning og'ir shaklidan aziyat chekmoqda va shoshilinch davolanishga muhtoj. Shu fonda dunyoning ko'plab davlatlari mojaroni diplomatik yo'l bilan tezroq hal qilish tarafdori. Bundan tashqari, dunyoning bir qator mamlakatlari falastinliklarga insonparvar yordam ko'rsatish tashabbusi bilan chiqdi. Jumladan, O'zbekiston rahbari ham 2023-yil 1-noyabr kuni Falastin xalqiga gumanitar yordam ko'rsatish uchun O'zbekiston tomonidan 1,5 million dollar ajratish to'g'risidagi qarorni [imzolagandi](#).

Bundan tashqari, O'zbekistonning Misrdagi elchisi Mansurbek Qilichevning tushuntirishicha, O'zbekiston prezidenti 2024-yil noyabr oyida bo'lib o'tgan Falastin masalasiga bag'ishlangan favqulodda arab-islom sammiti oldidan so'zlagan nutqida Falastin hududlarida harbiy operatsiyalarni to'xtatish va xavfsiz gumanitar yo'laklarni ta'minlash muhimligini ta'kidlab, Toshkent jarohatlangan falastinlik bolalar va ayollarni davolash uchun qabul qilishga tayyorligini [ma'lum qilgan](#)[4]. Natijada dekabr oyida 100 nafar falastinlik Rafahdan O'zbekistonga evakuatsiya qilindi. Bemor falastinliklar reabilitatsiya markazlari va shifoxonalarga joylashtiriladi.

Rafah - G'azo sektorining janubidagi Misr bilan chegaradosh shahar bo'lib, urush boshlanganidan keyin anklavning shimoliy va markaziy qismlaridan 1 milliondan ortiq falastinlik qochqinlar boshpana topgan. Rafah nazorat-o'tkazish punkti G'azodagi yagona quruqlik yo'li bo'lib, u orqali falastinliklar Isroilni chetlab o'tib, tashqi dunyo bilan bog'langan. Gumanitar yordam nazorat-o'tkazish punkti orqali yetkaziladi va G'azo aholisining yaradorlari evakuatsiya qilinadi. Isroil so'nggi bir necha oy davomida Rafahga quruqlik hujumini boshlash bilan [tahdid qilgan](#). Isroil rasmiylariga ko'ra, shaharda o'tgan yilning 7-oktabrida Isroilga qilingan hujum paytida guruh tomonidan asirga olingan minglab HAMAS askarlari va ehtimol o'nlab garovga olinganlar yashiringan. Isroil bosh vaziri Binyamin Netanyahu ham HAMAS ustidan g'alaba Rafahdagi operatsiyasiz bo'lishi mumkin emasligini ta'kidlagan. Isroilning Rafahdagi operatsiyasiga G'arb va arab davlatlari, shuningdek, xalqaro gumanitar tashkilotlar tinch aholi orasida ko'plab qurbonlar bo'lishi mumkinligi sababli qarshi chiqqan. Shu yilning may oyida Isroil tanklari G'azo sektorining janubidagi Rafah markaziga [kirdi](#), shaharga, shuningdek, havo hujumlari uyushtirilmoqda. Isroil BMT Xalqaro sudi mamlakatga hujumini zudlik bilan to'xtatishga majbur qilganiga qaramay, Rafahda harbiy operatsiyani davom ettirdi.

Ushbu evakuatsiya amaliyoti ikki davlatning Sog'liqni saqlash vazirliklari hamkorligida prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirildi. O'zbekiston hukumati ularga mamlakatda bo'lish davrida oilasining barcha ehtiyojlari, jumladan, mehmonxonalar, maktablar, oziq-ovqat va boshqa narsalar bilan ta'minlaydi. Falastin fuqarolarning O'zbekistonda tez va munosib moslashuvini ta'minlash maqsadida maxsus Respublika komissiyasi tuzilib, uning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

Birinchidan, mehmonlar uchun yaratilgan imkoniyatlar to'liq amalga oshirilishi uchun davlat organlari va tashkilotlarining ishi muvofiqlashtiriladi.

Ikkinchidan, mehmonlarning mamlakat bo'ylab joylashuvi tashkil etilib, ularni manzilli ravishda o'rnashtirish va bu jarayon bilan bog'liq tashkiliy masalalar tezkor hal qilinadi.

Uchinchidan, komissiya mehmonlarning jamiyatga uyg'unlashuviga doir masalalarni doimiy ravishda muhokama qilib, mavjud muammolar va to'siqlarni bartaraf etish yo'llarini izlaydi.

To'rtinchidan, Respublika komissiyasi bir oy ichida mehmonlarning ehtiyojlari va mavjud imkoniyatlarni o'rganib, har bir oila uchun ijtimoiy xizmatlar va yordam ko'rsatish bo'yicha aniq rejalar ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

42

**Xulosa.** Xulosa o'rnida aytish mumkinki, evakuatsiya jarayonlari, ayniqsa, urush va favqulodda vaziyatlar davrida yuzaga kelgan majburiy ko'chishlar jamiyat ijtimoiy tuzilmasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan muhim tarixiy hodisalardan biridir. Ushbu jarayonlar nafaqat demografik tarkibning o'zgarishiga, balki turli millat va elat vakillarining bir hududda yashashiga zamin yaratib, millatlararo munosabatlarning yangi shakllarini yuzaga keltirgan. Xususan, Ikkinchi jahon urushi yillarida amalga oshirilgan evakuatsiya siyosati natijasida Markaziy Osiyo hududlariga, jumladan, O'zbekistonga turli millat vakillari ko'chirib kelingan. Bu jarayon qisqa muddat ichida ko'p millatli ijtimoiy muhitni shakllantirib, mahalliy aholi bilan ko'chib kelganlar o'rtasida o'zaro aloqalar rivojlanishiga sabab bo'lgan. Mahalliy aholining bag'rikengligi, mehmondo'stligi va insonparvarlik qadriyatlarini evakuatsiya qilingan aholining moslashuv jarayonini yengillashtirgan hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Мирзақулов Б. Бухоро вилояти уруш йилларида (1941-1945). Тошкент.2020. - 120 б.
2. Красная Бухара, 1942, 1 март.
3. <https://yuz.uz/uz/news/arxiv-hujjatlarida-ikkinchi-jahon-urushi-davrida-evakuatsiya-qilingan-bolalar-taqdiri>
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/12/27/evacuation/>